

INGLIZ VA O'ZBEK ERTAKLARIDA ONA OBRAZINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Jumayeva Umida Abdurahim qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Umumiy tilshunoslik kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz va o'zbek ertaklarida ona obrazining lingvomadaniy xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda ona obrazining har ikki madaniyatdagi o'rnini, uning ijobiy va salbiy jihatlari hamda til birliklari orqali ifodalanishi o'rganiladi. O'zbek ertaklarida ona obrazi ko'proq idealizatsiya qilingan, mehribon va fidoyi sifatida tasvirlansa, ingliz ertaklarida u murakkab va ba'zan ziddiyatli xarakterga ega ekani aniqlanadi.

Kalit so'zlar: ona obrazi, ertaklar, lingvomadaniyat, o'zbek ertaklari, ingliz ertaklari, qiyosiy tahlil.

Аннотация. В данной статье проводится сравнительный анализ лингвокультурных особенностей образа матери в английских и узбекских сказках. Рассматривается роль образа матери в обеих культурах, его положительные и отрицательные характеристики, а также способы его выражения через языковые средства. Установлено, что в узбекских сказках образ матери идеализирован и представлен как символ доброты и самопожертвования, тогда как в английских сказках он носит более сложный и противоречивый характер.

Ключевые слова: образ матери, сказки, лингвокультура, узбекские сказки, английские сказки, сравнительный анализ.

Annotation. This article presents a comparative analysis of the linguocultural features of the mother image in English and Uzbek fairy tales. The study examines the role of the mother figure in both cultures, including its positive and negative aspects, as well as its expression through linguistic means. The findings reveal that in Uzbek fairy tales, the mother image is highly idealized and portrayed as a symbol of kindness and devotion, whereas in English fairy tales it appears more complex and sometimes contradictory.

Keywords: mother image, fairy tales, linguoculture, Uzbek fairy tales, English fairy tales, comparative analysis.

Kirish. Ertaklar xalq og'zaki ijodining muhim turi bo'lib, unda millatning qadriyatlarini, dunyoqarashi va axloqiy me'yorlari mujassam bo'ladi. Tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, "ertaklar xalqning tarixiy xotirasi va ma'naviy dunyosining badiiy ifodasidir" (Propp, 1968). Ayniqsa, obrazlar tizimida ona obrazi alohida o'rin egallaydi. Ona obrazi orqali mehr, fidoyilik, tarbiya va axloqiy qadriyatlar ifodalanadi. Ertaklar ko'pincha fantastik voqealar, sehrlilik obrazlar va hayotiy saboqlarni o'z ichiga oladi.

Asosiy qism. O'zbek ertaklarida ona obrazi asosan ijobiy xarakterga ega bo'lib, u mehribonlik, sabr-toqat va fidoyilik timsolidir. Ona farzandining baxti uchun o'zini qurbon qilishga tayyor shaxs sifatida tasvirlanadi. "O'zbek xalq og'zaki ijodida ona obrazi muqaddas tushuncha sifatida ulug'lanadi va u tarbiya manbai sifatida talqin qilinadi" (Rahimov, 2005). Masalan, "Ona obrazidan bebahra qolgan Zumrad o'gay onasining zulmiga sabr bilan chidadi. (O'zbek xalq ertaklari to'plami.-Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 1984). Shuningdek, o'zbek tilida "ona duosi", "ona mehri", "ona yuragi" kabi birikmalar keng qo'llanilishi lingvomadaniy jihatdan onaning yuksak maqomini ko'rsatadi (Mahmudov, 2012). Ona obrazi o'zbek ertaklarida til vositalari orqali ham o'ziga xos tarzda ifodalanadi. Ertaklarda "ona duosi", "ona mehri", "ona roziligi" kabi birikmalar keng qo'llaniladi. Bu

iboralar o'zbek xalqining ona siymosiga bo'lgan chuqur hurmati va e'tiqodini aks ettiradi. Masalan, "Oyguil bilan Baxtiyor" ertagida "onaning duosi bilan yo'lga chiqqan farzand xor bo'lmaydi" degan g'oya ilgari suriladi. Bu esa xalq ongida ona duosining muqaddas va kuchli ekanini ko'rsatadi. Lingvomadaniy nuqtai nazardan qaraganda, ona obrazi o'zbek xalqining qadriyatlar tizimida markaziy o'rin egallaydi va u til birliklari orqali avloddan-avlodga yetkaziladi.

Ingliz ertaklarida ona obrazi murakkabroq bo'lib, u ijobiy va salbiy shakllarda namoyon bo'ladi. Masalan, Cinderella va Snow White ertaklarida o'gay ona salbiy obraz sifatida tasvirlangan. "Western fairy tales frequently employ the figure of the evil stepmother as a narrative device to create conflict and moral contrast" (Zipes, 2006). Qiyosiy tahlil natijasida har ikkala madaniyatda ham ona mehr timsoli ekani, biroq o'zbek ertaklarida bu obraz idealizatsiya qilinishi, ingliz ertaklarida esa dramatik qarama-qarshilik kuchliroq ekani aniqlanadi (Karimov, 2010). Ingliz xalq ertaklarida ona obrazi o'ziga xos tarzda tasvirlanib, u ingliz jamiyatining tarixiy-madaniy qadriyatlarini aks ettiradi. Bu ertaklarda ona obrazi ko'pincha ikki xil shaklda namoyon bo'ladi: mehribon va g'amxo'r ona hamda sovuq yoki beparvo ona (ko'pincha o'gay ona obrazi orqali).

Birinchidan, ingliz ertaklarida mehribon ona obrazi farzandiga yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi, lekin ko'pincha mustaqil qaror qabul qilishga undovchi shaxs sifatida tasvirlanadi. Bu jihat ingliz madaniyatida individualizm va shaxsiy mustaqillikka katta ahamiyat berilishi bilan bog'liq. Masalan, "Jack and the Beanstalk" ertagida ona o'g'liga maslahat beradi, ammo uning harakatlarini to'liq nazorat qilmaydi. Bu esa bolalarning mustaqil fikrlashiga urg'u berilganini ko'rsatadi.

Ikkinchidan, ingliz ertaklarida o'gay ona obrazi salbiy xarakter sifatida keng uchraydi. Masalan, "Cinderella" ertagida o'gay ona zulmkor va adolatsiz sifatida tasvirlanadi. Bu obraz orqali oilaviy munosabatlardagi ziddiyatlar va ijtimoiy tengsizlik masalalari ochib beriladi. Lingvomadaniy jihatdan ingliz ertaklarida ona obrazi bilan bog'liq quyidagi til birliklari ko'p uchraydi: "mother's advice", "mother's love", "poor mother", "widowed mother". Ushbu iboralar ingliz jamiyatida onaning roli muhim ekanini ko'rsatsa-da, u o'zbek ertaklaridagidek muqaddas darajaga ko'tarilmaydi. Aksincha, ona ko'proq hayotiy, real shaxs sifatida tasvirlanadi. Shuningdek, ingliz ertaklarida onaning roli ba'zan cheklangan bo'lib, voqealar rivojida bola mustaqil harakat qilishi asosiy o'ringa chiqadi. Bu esa ingliz madaniyatida shaxs erkinligi va tashabbuskorlik yuqori qadrlanishini anglatadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, ingliz va o'zbek ertaklarida ona obrazi lingvomadaniy jihatdan muhim ahamiyatga ega. O'zbek ertaklarida ona obrazi mehr va fidoyilik timsoli sifatida ulug'lanadi, ingliz ertaklarida esa murakkab va qarama-qarshi xususiyatlarga ega. Ingliz ertaklarida ona obrazi o'zbek ertaklaridagiga nisbatan kamroq ideallashtirilgan bo'lib, u ko'proq real hayotga yaqin, ba'zan esa murakkab va ziddiyatli obraz sifatida namoyon bo'ladi. Bu esa ingliz xalqining lingvomadaniy xususiyatlari – individualizm, pragmatizm va realizm bilan chambarchas bog'liqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Propp, V. (1968). Morphology of the Folktale.
2. Zipes, J. (2006). Why Fairy Tales Stick.
3. Rahimov, M. (2005). O'zbek xalq og'zaki ijodi.
4. Mahmudov, N. (2012). Til va madaniyat.
5. Karimov, S. (2010). Lingvokulturologiya asoslari.
6. O'zbek xalq ertaklari to'plami. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 1984.